

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-igʻtisodiy, innovatsion texnik,
fan va taʼlimga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL

SENTYABR / 9-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.us/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari


08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Ф.Р. РАКАНОВА
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI ERTA ANIQLASH TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Kobilova Ozoda Abdishukur qizi	
BUYUK BRITANIYA STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODEL VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	15
Sodiqov Elmurod Shomurod o'g'li	
ФИНАНСОВЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ АГРОБИЗНЕСА, РЕФОРМА ИНСТИТУТА НЕПЛАТЁЖЕСПОСОБНОСТИ И ГЕОГРАФИЯ СЕЛЬСКОЙ БЕДНОСТИ: УЗБЕКИСТАН, 2015–2025 ГОДЫ.....	21
Адилов Шерзот Шамильевич	
AHOLI DAROMADLARI VA ISTE'MOL XARAJATLARINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	30
Farmonov Dilshod Po'latovich	
SUN'IY INTELLEKT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALIGA QO'YILADIGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLARNING O'ZGARISHI: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO'NALISHLAR	36
Durdona Davletova	
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MEHNAT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH OMILLARI, USULLARI HAMDA FUNKSIYALARI	56
Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna	
O'ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHNING AMALDAGI MEKANIZMI.....	61
Erxanov Muxammadjon Absayitovich	
BOSHQARUV TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI.....	68
Safarov Shohboz Vahob o'g'li	
EVALUATION OF THE PHYTOREMEDIATION POTENTIAL OF AZOLLA CAROLINIANA FOR THE REMOVAL OF TOXIC METALS FROM INDUSTRIAL EFFLUENTS	72
Azimov Shavkat Shuxratovich	
STABLE CEMENT COMPOSITES BASED ON WASTE TIRE RUBBER AND FLY ASH	78
Daminov Oybek, Egamberdiyev Elmurod, Xoliqulov Odiljon	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNING EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASH.....	85
Xikmatullayeva Nargiza Jamoliddin qizi	
CO-LOCATED SMALL MODULAR REACTORS AS AN ALTERNATE AC POWER SOURCE FOR LARGE NUCLEAR UNITS UNDER REGIONAL GRID CASCADING CONDITIONS: A DESIGN-BASIS ASSESSMENT FOR UZBEKISTAN	90
Turaeva Dilnavoz	
YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTINI BARQAROR IQTISODIYOTGA ULUSHINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARI.....	96
Dilshod Karimboyev	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ МОДЫ НА ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА	102
Юсупова Мохинур Фарход кизи	
АДАПТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАК ФАКТОР КАЧЕСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЭНЕРГОПЕРЕХОДА.....	110
Аллаева Гульчехра Жалгасовна	



ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПОВЕДЕНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ	121
Икрамова Нодира Бурхон кизи	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINING MINERALOGIK VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISH.....	128
Abdisoatov Sardor, Axmatov Sobir, Eshnazarov Mustafo	
MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA TA'LIM-INNOVATSION RIVOJLANISHNING MOHIYATI VA UNING NAZARIY ASOSLARI	133
Temirova Shalola Erkinovna	
BENZIN TARKIBIDAGI KISLOROD MIQDORINI ANIQLASH: TAHLIL USULLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	138
To'xtayev Nozim Nazir o'g'li	
EKSTRAKSIYA JARAYONI PARAMETRLARINING ERITUVCHILARNING EKSTRAKSION QOBILIYATIGA BOG'LIQLIGI	142
G'aybullayev Saidjon Abdusalimovich	
THE ROLE OF CHATBOTS IN EDUCATION AND THEIR APPLICATION	150
Hamroyev Bobirjon Bahritdinovich	
KICHIK BIZNES VA UNING MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI.....	156
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
KO'P QATLAMLI SFERIK QOBIQNING QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI XOS (ERKIN) TEBRANISHLARI	161
Jalolov Farruh Baxshulloyevich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASH VA ELEKTR TA'MINOTI BARQARORLIGINI OSHIRISH	168
Jafarov Sobir Talab o'g'li	
SENTINEL-1 PSINSAR TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QALMOQQIR OCHIQ KARYERI BORTLARINING DEFORMATSIYASINI SUN'IY YO'LDOSH ORQALI MONITORING QILISH	173
Usmonov Firdavs Ro'zimurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	181
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
АНАЛИЗ ДИНАМИКИ, СТРУКТУРЫ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА.....	190
Умаров Улугбек Унарович	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA IJTIMOY FAROVONLIK VA YASHASH SHAROITLARINI BAHOLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVI	197
Jamolov Mirzabek Mirjalil o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	202
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG'I STAVKALARINING BIR XILDA OSHIRILISHINING FISKAL, ISTE'MOL VA TAQSIMLANISHGA TA'SIRI.....	208
Musurmonov Sherzod Yusupovich	
DEVELOPING A CONCEPTUAL MODEL OF A MARKETING MECHANISM FOR ATTRACTING APPLICANTS	217
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li	
ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINING SOTSIAL-IQTISODIY MAZMUNI VA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI	230
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	
DISPERS SISTEMALARINING TURLARI VA ULARNINGYO'L BITUMLARINING XOSSALARIGA TA'SIRINI TADQIQ QILISH	235
Abdullayeva Shoxista Shuxratovna, Adizov Bobirjon Zamirovich	



ЦИФРОВИЗАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ.....	240
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING AXBOROT IMKONIYATLARI (EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH).....	245
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
MOLIVAVIY SAVODXONLIK VA AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA JALB ETILISHINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	253
Obilov Mirkomil Rashidovich	
IJTIMOY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING XORIJIY MODELLARI: QIYOSIY TAHLIL.....	260
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
DAVLAT SUBSIDİYALARINI BOSHQARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH VA XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	266
Hasanov To'liqin Axmatovich	
СПЕКТРОСКОПИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭКСИТОННОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ САМОАГРЕГАЦИИ МОЛЕКУЛ РИБОФЛАВИНА	272
Г.К. Касимова	
QAZIB OLINAYOTGAN ENG YIRIK VA RUDA KONLARINING GEODINAMIK SHAROITLARINI TAHLIL QILISH.....	277
Qo'shshayev Uchqun Quvvatovich	
KO'P O'LCHAMLI BESSEL OPERATORLARIGA ASOSLANGAN LAPLAS-BESSEL DIFFERENSIAL OPERATORINING FORMAL O'Z-O'ZIGA QO'SHMALIGI VA BIR JINSLILIK XOSSALARI HAQIDA.....	282
Jo'rayev Shaxzod Shuhratjon o'g'li	
NUQTAVIY BOG'LANISHLAR VA BIRIKTIRILGAN MASSALARGA EGA VISKOELASTIK PLASTINA-QOBIQ TIZIMLARINING ERKIN TEBRANISHLARINI VARIATION-SPEKTRAL TAHLIL QILISH.....	287
Homidov Farhod Faxridinovich	
ELEKTROTEKNIK TIZIMLARINING METROLOGIK TA'MINOTINI RAQAMLI MONITORING VA INTELLEKTUAL DIAGNOSTIKA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	297
Sanayeva Gulsun Baxtiyorovna	
MUHANDISLIK MASALALARINI YECHISHDA CAD VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	302
Rustamov Erkin Tohirovich	
ENERGETIKA TIZIMLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	307
Xafizov Islom Ikramovich	
QANDLI DIABET KASALLIGINING POPULYATSIYADA TARQALISH ZANJIRI VA DINAMIK KO'RSATKICHLARINING MATEMATIK-STATISTIK TAHLILI	314
G'aniyev Qodirjon Qahramon o'g'li	
QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA INVESTITSİYALARNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	319
Yunusov Abduvoxid Abdulkarimovich	



QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA INVESTITSİYALARNI JORIY ETISH MEKANIZMLARI

Yunusov Abduvoxid Abdulkarimovich

Andijon davlat texnika instituti
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti, "Menejment" kafedrasida assistenti
Qo'qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Email: yunusov78aa@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali joriy etish mexanizmlari tadqiq etilgan. Qurilish sohasining iqtisodiyotdagi o'rni, kichik biznes subyektlarining qurilish ishlaridagi ulushi, investitsiya resurslariga bo'lgan ehtiyoji hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik biznesning o'z mablag'lari, bank kreditlari, lizing, davlat dasturlari, xususiy investitsiyalar, sheriklik asosidagi moliyalashtirish va boshqa moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, qurilish sohasidagi kichik korxonalarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda garov ta'minoti, axborot assimetriyasi, loyiha risklari va moliyaviy barqarorlik kabi omillarning ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida qurilishdagi kichik biznes uchun investitsiyalarni joriy etishning bosqichma-bosqich mexanizmi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: qurilish sohasi, kichik biznes, investitsiya, investitsiya mexanizmi, moliyalashtirish, bank krediti, lizing, xususiy investitsiya, investitsiya loyihasi, davlat dasturlari, moliyaviy risk.

Аннотация: В статье исследованы механизмы привлечения и эффективного внедрения инвестиций в субъекты малого бизнеса, осуществляющие деятельность в строительной сфере. Проанализированы роль строительного сектора в экономике, участие субъектов малого предпринимательства в выполнении строительных работ, потребность в инвестиционных ресурсах и вопросы диверсификации источников финансирования. Рассмотрены возможности использования собственных средств, банковских кредитов, лизинга, государственных программ, частных инвестиций, партнерского финансирования и других финансовых инструментов. Особое внимание уделено влиянию залогового обеспечения, информационной асимметрии, проектных рисков и финансовой устойчивости малых строительных предприятий на доступность инвестиционных ресурсов. На основе проведенного анализа предложен поэтапный механизм внедрения инвестиций в субъекты малого бизнеса строительной отрасли.

Ключевые слова: строительная отрасль, малый бизнес, инвестиции, инвестиционный механизм, финансирование, банковский кредит, лизинг, частные инвестиции, инвестиционный проект, государственные программы, финансовый риск.

Abstract: This article examines the mechanisms for attracting and effectively implementing investments in small business entities operating in the construction sector. The study analyzes the role of the construction sector in the economy, the contribution of small businesses to construction activities, their investment resource requirements, and the diversification of financing sources. Particular attention is paid to own funds, bank loans, leasing, government support programs, private investment, partnership-based financing, and other financial instruments. The study also examines the impact of collateral requirements, information asymmetry, project risks, and financial stability on the availability of investment resources for small construction enterprises. Based on the analysis, a phased mechanism for implementing investments in small businesses in the construction sector is proposed.

Keywords: construction sector, small business, investment, investment mechanism, financing, bank lending, leasing, private investment, investment project, government programs, financial risk.

KIRISH

Bugungi sharoitda qurilish sohasi iqtisodiy o'sish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish, infratuzilmani rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, mazkur sohada kichik biznes subyektlarining faolligi raqobat muhitini kuchaytirish, hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish va turli hajmdagi qurilish loyihalarini amalga oshirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari shakllantirilgan bo'lib, investitsiyalar moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlarni foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga kiritishni nazarda tutadi [1].

Qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlari faoliyatining ko'lamini ham mazkur yo'nalishda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 111 914,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich qurilish bozorida kichik biznesning sezilarli iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [2]. 2024-yilning yanvar–iyun oylarida esa kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 57 674,9 mlrd so'mni tashkil etgan [3].

Qurilish faoliyatining kapital talab qiluvchi xususiyati kichik biznes subyektlarining investitsiya resurslariga bo'lgan ehtiyojini yanada oshiradi. Qurilish texnikalarini xarid qilish, zamonaviy uskunalarni joriy etish, ishlab chiqarish bazasini kengaytirish, aylanma mablag'larni shakllantirish, energiya samarador texnologiyalarni qo'llash va yangi qurilish loyihalarini moliyalashtirish katta miqdordagi moliyaviy resurslarni talab etadi. Shu sababli investitsiyalarni faqat korxonaning ichki mablag'lari hisobidan moliyalashtirish imkoniyati cheklangan kichik biznes uchun tashqi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Investitsiyalarni jalb etish jarayonida kichik korxonalar yirik biznes bilan bir qatorda turli moliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollarga ega. Xususan, garov ta'minotini mustahkamlash, kredit tarixini shakllantirish, pul oqimlarini barqarorlashtirish, investitsiya loyihalarini professional darajada tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish va axborot shaffofligini oshirish moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini yuksaltiradi. Xalqaro tadqiqotlarda ham kichik firmalarning tashqi moliyalashtirish, ayniqsa bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun turli moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish muhimligi qayd etilgan [4].

Shu nuqtayi nazardan, qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni joriy etish mexanizmini faqat kredit ajratish jarayoni sifatida emas, balki investitsiya loyihasini aniqlash, moliyaviy manbani tanlash, risklarni baholash, moliyalashtirish, loyiha monitoringi va investitsiya natijadorligini baholashni qamrab oluvchi kompleks tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning maqsadi qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali joriy etishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish va ularga investitsiya resurslarini yo'naltirish masalalari xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Xususan, Allen N. Berger va Gregory F. Udell "The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets in the Financial Growth Cycle" nomli tadqiqotida kichik biznesni moliyalashtirishni korxonaning moliyaviy rivojlanish sikli bilan bog'liq holda izohlaydi. Mualliflarning fikricha, korxonaning hajmi, yoshi va rivojlanish bosqichiga qarab unga mos moliyalashtirish manbalari ham o'zgarib boradi. Ular kichik biznes moliyasida qarz va xususiy kapital bozorlarining o'zaro bog'liqligini alohida ko'rsatib beradi [5].

Berger va Udellning mazkur yondashuvi qurilish sohasidagi kichik korxonalar uchun ham muhimdir. Chunki yangi tashkil etilgan qurilish korxonasi bilan ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan qurilish kompaniyasining kredit olish imkoniyatlari, garov ta'minoti, pul oqimlari va investitsiya loyihalarini amalga oshirish salohiyati bir xil bo'lmaydi. Shuning uchun barcha kichik biznes subyektlariga yagona moliyalashtirish mexanizmini qo'llash o'rniga korxonaning rivojlanish bosqichiga mos moliyaviy instrumentlardan foydalanish samaraliroq hisoblanadi.

Thorsten Beck, Asli Demirgüç-Kunt va Vojislav Maksimovic tomonidan "Financing Patterns Around the World: Are Small Firms Different?" maqolasida 48 mamlakat korxonalari bo'yicha moliyalashtirish manbalari o'rganilgan. Tadqiqotchilar kichik firmalar, ayniqsa institutsional rivojlanish darajasi pastroq bo'lgan muhitlarda, tashqi moliyalashtirishdan va bank kreditlaridan yirik firmalarga nisbatan kamroq foydalanishini aniqlagan. Mualliflar mulk huquqlarining himoyalanganligi kichik firmalarning tashqi moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi [4].

Mazkur ilmiy qarash qurilish sohasidagi kichik biznes uchun investitsiya mexanizmini shakllantirishda huquqiy va institutsional omillarning ahamiyatini ko'rsatadi. Chunki qurilish loyihalarida ko'chmas mulk, yer uchastkasidan foydalanish huquqi, qurilish texnikasi va boshqa aktivlar moliyalashtirish uchun ta'minot vazifasini bajarishi mumkin. Ushbu aktivlarga bo'lgan huquqlarning aniq belgilanganligi investor va kreditorlarning riskini kamaytiradi.

Stewart C. Myers va Nicholas S. Majluf "Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information That Investors Do Not Have" nomli maqolasida investitsiya va moliyalashtirish qarorlarida axborot assimetriasining ta'sirini tahlil qilgan. Ularning modeliga ko'ra, korxona rahbariyati korxonaning haqiqiy moliyaviy holati va investitsiya imkoniyatlari haqida tashqi investorlar yoki kreditorlarga qaraganda ko'proq



ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Natijada tashqi moliyalashtirish qiymati oshishi yoki ayrim foydali investitsiya loyihalarining amalga oshirilmay qolishi ehtimoli yuzaga keladi [6].

Ushbu nazariy yondashuv qurilish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, biznes-rejaning sifatli ishlab chiqilishi, loyiha bo'yicha pul oqimlarining aniq prognoz qilinishi va investor uchun axborot bazasining shakllantirilishi muhimligini ko'rsatadi. Demak, investitsiya mexanizmining samaradorligini oshirish faqat moliyaviy resurs miqdorini ko'paytirish bilan emas, balki investor va korxona o'rtasidagi axborot nomutanosibligini kamaytirish bilan ham bog'liq.

OECD tomonidan tayyorlangan "Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard" hisobotida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish tendensiyalari, qarz va kapital moliyalashtirish, moliyaviy sharoitlar hamda davlat siyosati mexanizmlari kompleks ravishda baholangan. Hisobot kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun turli moliyalashtirish kanallarini rivojlantirish va moliyaviy sharoitlarni monitoring qilish zarurligini ko'rsatadi [7].

Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) amaliyotida ham kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun qarz, kapital, sindikatsiyalangan kreditlar, savdo moliyalashtirishi, strukturaviy moliyalashtirish va risklarni boshqarish instrumentlaridan foydalanish mexanizmlari qo'llaniladi [8]. Bu tajriba O'zbekistonda qurilish sohasidagi kichik biznes uchun an'anaviy bank kreditlari bilan bir qatorda lizing, kafillik, investitsion sheriklik va boshqa moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish zarurligini asoslash imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son¹ Qonuni bilan belgilanadi. Mazkur qonunda investitsiyalarning kapital, moliyaviy va ijtimoiy shakllarga ajratilishi, yuridik shaxs tashkil etish yoki ustav kapitalida ulush bilan ishtirok etish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish kabi investitsiya shakllari belgilangan [1].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar umumlashtirilganda, qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni joriy etish mexanizmi korxonaning rivojlanish bosqichi, investitsiya loyihasining rentabelligi, moliyaviy barqarorlik, garov imkoniyati, risk darajasi va axborot shaffofligini hisobga olishi lozim. Shuningdek, bitta moliyalashtirish manbasiga bog'lanib qolmasdan, diversifikatsiyalangan investitsiya mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlarining faoliyati va investitsiya jarayonlarini baholashda rasmiy statistik ma'lumotlar asos qilib olindi. Investitsiyalarni joriy etish mexanizmini ishlab chiqishda korxonaning moliyaviy holati, loyiha rentabelligi, risk darajasi va moliyalashtirish manbalarining o'zaro bog'liqligi hisobga olindi. Shuningdek, xalqaro ilmiy adabiyotlarda shakllangan kichik biznesni moliyalashtirish yondashuvlari O'zbekiston qurilish sektori sharoitiga moslashtirildi. Tadqiqot natijasida qurilish sohasidagi kichik biznes uchun investitsiyalarni jalb qilish va ulardan foydalanishning bosqichma-bosqich mexanizmi ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda qurilish sohasining rivojlanishida kichik biznes subyektlarining hissasi yuqori bo'lib, ushbu holat mazkur korxonalarni investitsion qo'llab-quvvatlash masalasini dolzarb qiladi. Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 111 914,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich tarkibida kichik korxonalar 48 870,3 mlrd so'm, mikrofirma va boshqa kichik tadbirkorlik subyektlari esa tegishli hajmda qurilish ishlarini amalga oshirgan [2].

2024-yil yanvar-mart oylarida kichik biznesning qurilish ishlaridagi ulushi 77 foizni tashkil etgani mazkur sektorning qurilish bozoridagi iqtisodiy ahamiyatini yanada yaqqol namoyon qiladi [9]. Shu davrda kichik biznes tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 23 928,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Bunda kichik korxonalar hissasi 9 973,5 mlrd so'm, mikrofirma hissasi 7 980 mlrd so'm va yakka tartibdagi tadbirkorlar hissasi 5 975,1 mlrd so'mni tashkil qilgan [9].

2025-yil bo'yicha Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlarida kichik biznesning qurilish ishlaridagi hajmi 170,0 trln so'mga yetgani qayd etilgan. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 57,1 trln so'm, 2022-yilda 69,7 trln so'm, 2023-yilda 114,5 trln so'm va 2024-yilda 144,1 trln so'm bo'lgan. Mazkur dinamika kichik biznesning qurilish sohasidagi ishlab chiqarish imkoniyatlari sezilarli ravishda kengayayotganini ko'rsatadi (1-jadval) [10].

1 <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>

1-jadval

O'zbekistonda kichik biznesning qurilish sohasidagi faoliyati dinamikasi²

Yil	Kichik biznes tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, trln so'm	Qurilishdagi ulushi
2021	57,1	73,9 %
2022	69,7	73,9 %
2023	114,5	78,6 %
2024	144,1	77,7 %
2025	170,0	75,7 %

Jadval ma'lumotlari kichik biznes tomonidan bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi 2021–2025-yillarda mutlaq qiymatda izchil o'sganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2025-yilda ulushning 75,7 foizgacha pasayishi kichik biznes faoliyati qisqarganini anglatmaydi. Aksincha, mutlaq hajm 170,0 trln so'mga yetgan. Ulushning pasayishi qurilish bozorining boshqa segmentlarida ham o'sish kuzatilganligi bilan izohlanishi mumkin.

Investitsiyalar nuqtayi nazaridan qaralganda, kichik qurilish korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish uchun asosiy kapitalga investitsiyalar alohida ahamiyatga ega. Qurilish sohasida zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish mehnat unumdorligini oshirishi, qurilish muddatlarini qisqartirishi va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishi mumkin. Shu sababli investitsiya mexanizmi faqat yangi bino yoki inshoot qurishga emas, balki qurilish korxonasining texnik bazasini modernizatsiya qilishga ham yo'naltirilishi kerak.

2026-yilning yanvar–mart oylarida O'zbekiston qurilish sektorida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga 16,8 trln so'm investitsiya o'zlashtirilgan. Ushbu mablag'larning 12,7 trln so'mi xorijiy investitsiyalar va kreditlar hissasiga to'g'ri kelgan [11]. Bu ko'rsatkich qurilish sohasida tashqi moliyalashtirish manbalari katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Qurilishdagi kichik biznes subyektlari uchun investitsiya mexanizmini shakllantirishda moliyalashtirish manbalarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin (2-jadval):

2-jadval

Qurilish sohasidagi kichik biznes uchun investitsiya moliyalashtirish manbalari³

Moliyalashtirish manbasi	Asosiy mazmuni	Afzalligi	Asosiy cheklov
Korxonaning o'z mablag'lari	Foyda va amortizatsiya mablag'lari	Mustaqillik yuqori	Mablag' hajmi cheklangan
Bank krediti	Investitsion va aylanma kreditlar	Katta loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati	Foiz va garov talablari
Lizing	Qurilish texnikasi va uskunalarini moliyalashtirish	Katta boshlang'ich xarajatni kamaytiradi	Uzoq muddatli to'lov majburiyati
Xususiy investor	Kapital yoki ulush asosida mablag'	Katta loyihalarni amalga oshirish imkoniyati	Investor daromad va nazorat talab qiladi
Davlat dasturlari	Imtiyozli kredit, kafillik va boshqa qo'llab-quvvatlash	Moliyaviy yukni kamaytiradi	Tanlov va mezonlar mavjud
Kafillik mexanizmi	Kredit uchun qo'shimcha ta'minot	Garovi yetarli bo'lmagan korxonaga imkon beradi	Kafillik qiymati va shartlari
Hamkorlik asosidagi investitsiya	Bir nechta tadbirkor yoki investor mablag'lari	Risk taqsimlanadi	Boshqaruvni muvofiqlashtirish zarur
Xorijiy investitsiya	Tashqi kapital va texnologiya	Moliyadan tashqari texnologiya olib kiradi	Valyuta va loyiha risklari

Mazkur mexanizmida bank krediti muhim o'rin egallab, kichik qurilish korxonalarini moliyalashtirishda samarali moliyaviy instrument sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, qurilish loyihasing dastlabki bosqichida pul oqimlarini to'g'ri rejalashtirish, kredit foizlarini o'z vaqtida to'lash imkoniyatlarini kengaytirish va garov aktivlarini shakllantirish kredit risklarini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Shu sababli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank krediti bilan bir qatorda lizing, kafillik va xususiy kapital instrumentlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan [10].

3 Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va investitsiya moliyalashtirish amaliyotlari asosida ishlab chiqilgan.



Qurilish texnikasi va uskunalari yangilashda lizing mexanizmi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, kichik qurilish korxonasi o'z mablag'i hisobidan qimmatbaho maxsus texnikani sotib olish o'rniga, uni lizing asosida olishi mumkin. Bunday mexanizm korxonaning boshlang'ich kapital yukini kamaytiradi va texnika yordamida qo'shimcha daromad shakllantirish imkonini beradi. Bunda lizing to'lovlari investitsiya loyihasining kutilayotgan pul oqimlari bilan mutanosib ravishda rejalashtirilishi kerak.

Investitsiya mexanizmining yana bir muhim elementi loyiha risklarini baholash hisoblanadi. Qurilish loyihalarida materiallar narxining o'zgarishi, loyiha muddatining cho'zilishi, qurilish-montaj xarajatlarining ortishi, buyurtmachining to'lovlarni kechiktirishi va bozor talabining o'zgarishi investitsiya samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun kredit yoki investitsiya ajratilishidan oldin loyiha bo'yicha sezgirlik tahlili o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Bunda investitsiya loyihasining samaradorligini quyidagi asosiy ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin:

- investitsiyaning qaytish muddati;
- sof joriy qiymat (NPV);
- ichki daromadlilik normasi (IRR);
- investitsiya rentabelligi;
- qarz yukining daromadga nisbati;
- operatsion pul oqimining kredit to'lovlariga nisbati;
- qurilish loyihasining xarajatlarni smetasidan chetlanish darajasi.

Kichik biznes uchun investitsiya mexanizmini takomillashtirishda axborot shaffofligi ham muhim ahamiyatga ega. Myers va Majlufning axborot assimetriyasiga asoslangan yondashuvdan kelib chiqib, investor korxona faoliyati to'g'risida yetarli va ishonchli ma'lumotga ega bo'lmasa, tashqi moliyalashtirish qiymati oshishi mumkin [6]. Shu sababli qurilish korxonalarida elektron buxgalteriya hisobi, raqamli loyiha boshqaruvi, elektron shartnomalar, elektron hisob-fakturalar va loyiha bo'yicha real vaqt rejimidagi pul oqimlari monitoringini kengaytirish investitsiya jozibadorligini oshiradi.

Qurilish korxonasining investitsiya jozibadorligini oshirish uchun investorga taqdim etiladigan "investitsiya pasporti"ni shakllantirish ham maqsadga muvofiq. Unda korxonaning moliyaviy holati, mavjud aktivlari, kredit tarixi, amalga oshirilgan loyihalar, buyurtmachilar tarkibi, loyiha qiymati, kutilayotgan daromad, pul oqimlari, risklar va ularni kamaytirish choralari aks ettirilishi mumkin (3-jadval).

3-jadval

Qurilishdagi kichik biznesga investitsiya joriy etishning taklif etilayotgan mexanizmi⁴

Bosqich	Mazmuni	Asosiy natija
1-bosqich	Investitsiya ehtiyojini aniqlash	Moliyalashtirilishi kerak bo'lgan loyiha shakllanadi
2-bosqich	Loyiha texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqish	Xarajat va daromad prognozi aniqlanadi
3-bosqich	Risklarni baholash	Moliyaviy va loyiha risklari aniqlanadi
4-bosqich	Moliyalashtirish manbasini tanlash	Kredit, lizing, investor yoki aralash model belgilanadi
5-bosqich	Investitsiyani jalb qilish	Moliyaviy resurs shakllantiriladi
6-bosqich	Investitsiyani loyihaga yo'naltirish	Texnika, texnologiya yoki qurilish loyihasi moliyalashtiriladi
7-bosqich	Monitoring	Xarajat va natijalar nazorat qilinadi
8-bosqich	Natijadorlikni baholash	Investitsiyaning iqtisodiy samarasi aniqlanadi

Taklif etilayotgan mexanizmning asosiy xususiyati shundan iboratki, investitsiya jarayoni mablag'ni ajratish bilan yakunlanmaydi. Investitsiya samaradorligini ta'minlash uchun mablag'ning maqsadli ishlatilishi, qurilish ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishi, xarajatlarning smetaga muvofiqligi va kutilayotgan daromadlarning shakllanishi muntazam monitoring qilinishi lozim.

Shuningdek, kichik qurilish korxonalarini moliyalashtirishda "aralash moliyalashtirish" modelidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda loyiha qiymatining bir qismi korxonaning o'z mablag'lari, bir qismi bank krediti, yana bir qismi investor yoki lizing mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Bunday yondashuv bitta moliyalashtirish manbasiga bo'lgan bog'liqlikni kamaytirib, risklarni bir nechta ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda qarz va kapital instrumentlarini birgalikda qo'llash, moliyaviy vositachilar orqali kichik korxonalarga resurslarni yetkazish hamda risklarni kamaytiruvchi

mexanizmlardan foydalanish keng qo'llaniladi [8]. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ham kichik qurilish korxonalarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun banklar, lizing kompaniyalari, investitsiya tashkilotlari va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish zarur.

Tahlillar asosida qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlariga investitsiyalarni joriy etish samaradorligini oshirishning quyidagi yo'nalishlarini taklif etish mumkin:

Birinchidan, kichik qurilish korxonalarining investitsiya loyihalarini baholashda faqat garov ta'minotiga emas, balki loyihaning kelajakdagi pul oqimlariga asoslangan baholash mexanizmini kengaytirish lozim.

Ikkinchidan, qurilish texnikasi va uskunalarini yangilash uchun lizing instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish zarur.

Uchinchidan, garovi yetarli bo'lmagan, biroq iqtisodiy jihatdan samarali loyihaga ega kichik korxonalar uchun kafillik mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, qurilish korxonalarining investorlar uchun ochiqqligini oshirish maqsadida raqamli "investitsiya pasporti"ni joriy etish mumkin.

Beshinchidan, investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda NPV, IRR, investitsiyaning qaytish muddati va pul oqimlari kabi ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish kerak.

Oltinchidan, investitsiya jarayonini loyiha monitoringi bilan bog'lash va mablag'lardan foydalanishni bosqichma-bosqich moliyalashtirish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin egallab, qurilish ishlarining katta qismini amalga oshirishda ishtirok etmoqda. Shu sababli ushbu subyektlarning investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish qurilish sohasining texnik va texnologik rivojlanishi, mehnat unumdorligining oshishi hamda raqobat muhitining kuchayishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik qurilish korxonalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bilan bir qatorda, investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Garov ta'minotini mustahkamlash, axborot shaffofligini oshirish, loyiha risklarini samarali boshqarish, moliyaviy rejalashtirishni rivojlantirish va moliyalashtirish manbalarini kengaytirish investitsiya faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda diversifikatsiyalangan investitsiya mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda korxonaning o'z mablag'lari, bank kreditlari, lizing, xususiy investitsiyalar, davlat qo'llab-quvvatlash instrumentlari, kafillik mexanizmlari va hamkorlik asosidagi investitsiyalar o'zaro uyg'unlashtirilishi lozim.

Maqolada taklif etilgan mexanizm investitsiya ehtiyojini aniqlash, loyihaning texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqish, risklarni baholash, moliyalashtirish manbasini tanlash, investitsiyani joriy etish, monitoring qilish va yakuniy samaradorlikni baholash bosqichlarini qamrab oladi. Mazkur yondashuv investitsiya resurslaridan maqsadli foydalanish va kichik qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish imkonini beradi.

Kelgusida qurilish sohasidagi kichik biznes uchun raqamli investitsiya platformalarini rivojlantirish, korxonalar uchun raqamli investitsiya pasportlarini shakllantirish, loyiha pul oqimlarini real vaqt rejimida monitoring qilish va kredit qarorlarini loyiha samaradorligi asosida qabul qilish mexanizmlarini rivojlantirish investitsiya jarayonining samaradorligini yanada oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019-yildagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "Qurilishda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari". — Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi, 2024. — Elektron resurs.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "Qurilishda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari". — Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi, 2024. — Elektron resurs.
4. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Maksimovic V. "Financing Patterns Around the World: Are Small Firms Different?" // Journal of Financial Economics. — Elsevier, 2008. — Vol. 89, No. 3. — P. 467–487.
5. Berger A.N., Udell G.F. "The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets in the Financial Growth Cycle" // Journal of Banking & Finance. — Elsevier, 1998. — Vol. 22, Issues 6–8. — P. 613–673.
6. Myers S.C., Majluf N.S. "Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information That Investors Do Not Have" // Journal of Financial Economics. — Elsevier, 1984. — Vol. 13, No. 2. — P. 187–221.
7. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard. — Paris: OECD Publishing, 2024. — 254 p.
8. International Finance Corporation. SME Finance Investment Services. — Washington, D.C.: IFC, 2026. — Elektron



resurs.

9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "Qurilishda kichik tadbirkorlik (biznes)ning asosiy ko'rsatkichlari". — Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi, 2024. — Elektron resurs.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Main Indicators of Small Business Entities in the Republic of Uzbekistan. — Toshkent: National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, 2025. — Elektron resurs.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "Qurilish sohasida investitsiyalar hajmi ortib bormoqda". — Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi, 2026. — Elektron resurs.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100